

МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМДА БОЛАЛАРНИ КУЗАТИШДА РИВОЖЛАНИШ ХАРИТАСИНING O`RNI

Haydarova Kamarbasta

*Andijon davlat pedagogika institute 70110201 - Ta`lim tarbiya nazariyasi
va metodikasi (Maktabgacha ta`lim) 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni kuzatishda rivojlanish xaritasining o`rni, yuritilish tartibi, mazmun-mohiyati, tarbiyachining boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini yoritib borilishi, shuningdek, bolalarning ta`lim sohalarini o`zlashtirishdagi zaif tomonlarini aniqlaydi.

Kalit so`zlar. rivojlanish, rivojlanish xaritasi, pedagoglar, bolalar faoliyati, kuzatish, kuzatish natijalari, ko`nikma.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль карты развития в наблюдении за детьми в дошкольных образовательных организациях, порядок ее ведения, содержание, освещение воспитателем достижений ребенка в сотрудничестве с другими педагогами, а также выявление слабых мест детей в освоении образовательных областей.

Ключевые слова. развитие, карта развития, воспитатели, деятельность детей, наблюдение, результаты наблюдения, умение.

Abstract. In this article, the role of the development map in the monitoring of children in preschool educational organizations, its procedure, its content, the teacher's cooperation with other pedagogues, and the clarification of the child's achievements, as well as the children's weaknesses in mastering the fields of education, are determined.

Key words. development, development map, pedagogues, children's activities, observation, results of observation, skills.

Prezidentimizning 2020 - yil 6 - noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022 - yil 1 - yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, jumladan, bolalarning o'sishi hamda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi jarayonlarini monitoring qilish bo'yicha "Bolalar bog'chasi" axborot tizimini ishga tushirish va unga kiritiladigan ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash belgilangan. Bu bo'yicha qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola yosh rivojlanish bosqichlarida uning jismoniy, ma'naviy,

imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib, uni intensiv mashg'ulotlar bilan maktab ta'limiga tayyorlovga o'rgatish mumkin emas. Bolalarning yoshga bog'liq psixofiziologiyasi, ushbu yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'limga oid ish shakllari, didaktik o'yinlardan, ko'rgazmali-predmetli mashg'ulotlardan, bolalarning amaliy va tasviriy faoliyatining turli shakllaridan keng foydalangan holda tarbiyaviy ishlar usullari qo'llagan holda amalga oshirilish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar faoliyatining har xil turlarida: badiiy adabiyot, atrofdagi muhit hodisalari bilan tanishtirishga oid mashg'ulotlarda, qolgan barcha mashg'ulotlarda, shuningdek ulardan tashqari vaqtlarda – o'yin va mehnat faoliyatida, kundalik hayotda ularning o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. Mana shunday kuzatilayotgan bolalarning o'ziga xos jihatlari, hatti-harakatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Bolaning rivojlanish xaritasi” nomli hujjat orqali yoritib boriladi. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch bosqichdan iborat bo'lgan kuzatish olib boriladi: dastlabki - o'quv yili boshida, oraliq - o'quv yili o'rtasida va yakuniy - o'quv yili yakunida. Dastlabki kuzatish o'quv yili boshida o'tkaziladi taxminan sentabr oyida. Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari - boshlang'ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi aniqlanadi. Uning shu davrgacha erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o'quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muammolari aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi. Pedagog- tarbiyachi bola yutuqlari xaritasini to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi bilan belgilaydi. Kuzatish rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator ya'ni kutilayotgan natijalar «ishlamasa», pedagog -tarbiyachi “Pedagog izohi” ustunida eslatma yozishi lozim. Bolaning rivojlanish darajasi quyidagi tushuntirishlar yordamida belgilanadi:

K – kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari kam yoki umuman namoyon qilmaydi).

B – ba'zida kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari tasodifiy yoki ma'lum vaziyatlarda).

T – tez-tez kuzatiladi (bola asosiy ko'nikma / xatti-harakatni vaziyatga qarab namoyish etadi).

D – doimiy ravishda kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari talab darajasida, mustaqil tarzda takrorlaydi).

Oraliq kuzatish xuddi shu tartibga binoan o'tkaziladi. Kuzatishning bu turi birinchi yarim yillik oxiri dekabr, yanvarda o'tkaziladi. Bunday kuzatishni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to'g'riligini aniqlash,

rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatish natijalariga ko‘ra, pedagog, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug‘ilgan holatlarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin. O‘quv yili oxirida odatda may oyida pedagog yakuniy kuzatish o‘tkazadi. Mazkur kuzatish asosida yil boshida qo‘yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko‘zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi. Kuzatish o‘tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatish bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
- bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatish kamida ikki hafta yoki bir oy mobaynida olib boriladi.
- pedagog bola to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin.
- pedagog bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e‘tibor qaratishi lozim.

3-6 yoshdagi bolalarni oraliq va yakuniy kuzatish natijalariga ko‘ra, ushbu bolaning rivojlanish sohalarini bo‘yicha rivojlanishida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi. 6-7 yoshdagi bolalar uchun (MTT bitiruvchisi) faqat oraliq kuzatish maqsadlari aniqlanadi, yakuniy kuzatishdan so‘ng bolaning maktabga tayyorligi xaritasi to‘ldiriladi. Ushbu kuzatuv asosida tarbiyachi [pedagog-psixolog](#), logoped, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini yoritib beradi, ta‘lim sohalarini o‘zlashtirishdagi zaif tomonlarini aniqlaydi. Shunga muvofiq ta‘lim jarayoniga [tuzatishlar kiritiladi](#), shuningdek, yakka tartibda ishlash rejalashtiriladi va tarbiyachining kundalik ish daftarida aks ettirilgan vazifalar amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-yil 4-fevraldagi tasdiqlangan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi.
2. <https://fayllar.org/bolaning-rivojlanish-xaritasi.html>.
3. <https://uz up wiki.one>.